



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



MIRZO ULUG‘BEK FALAKIYOT ILMINING JAVHARI

Dilshoda Sarayeva

*SamDTU Tibbiy profilaktika,
jamoat salomatligi va tibbiy biologiya
fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yulduzlar ilmining dahosi, astranom tarixchi Temuriylar sulolasining a’zosi Mirzo Ulug‘bek haqida ba’zi fikrlar tahlil qilingan. Uning yurtimiz tarixi uchun qilgan tarixiy xizmatlari va bugungi yoshlarga o’rnak bo‘ladigan jihatlar tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Zij, yulduz, madrasa, ilm ahli, tazkira, falakkiyotshunos, taqvim, riyozat, riyozatshunos, rasad.*

Abstract. *This article analyzes some thoughts about Mirzo Ulugbek, a genius of astronomy, a member of the Timurid dynasty, an astronomist and historian. His historical services to the history of our country and aspects that can serve as an example for today’s young peoples are studied.*

Keywords. *Zij, star, madrasah, scholars, tazkira, astrologer, calendar, riyazat, observatory.*

Yulduzlar bashariyat paydo bo‘lgan zamonlardan insonlarni o‘ziga jalb qilib, hayratga soladigan beqiyos yaratiqlardir. Ilmi nujum ya’ni yulduzlar ilmi hanuzgacha sir-sinoatlarga boy, hali hamon oxiriga yetilmagan mavzudir. Bu soha har qanday insonni o‘ziga torta oladigan, qiziqtira oladigan, biroq har kimning ham zehni-zakovati yecholmaydigan va yetolmaydigan juda murakkab sohadir. Yulduzlar ilmini ochish uchun inson zukko olim, fozil, hatto favqulodda fenomen darajasidagi inson bo‘lishi lozim. O‘rta asrlar Sharq allomalarining yorqin yulduzi Muhammad Tarag‘ay – Mirzo Ulug‘bek ana shunday yetuk ilm ahllaridan edi.

Mirzo Ulug‘bek zamonasining barcha hukmdorlaridan o‘zgacha yo‘l tutib, ko‘proq ilmfanga moyil edi. Bobokaloni sohibqiron Amir Temur tirikligidayoq Samarqand va boshqa shaharlarda keng qamrovli ilmiy va madaniy muhit va shunga mos faoliyat yuzaga kelgan edi. Bu yuksak iqtidor sohibi bo‘lgan Mirzo Ulug‘bekning ilmgaga bo‘lgan hafsalasi uchun eng muhim omillaridan biri bo‘ldi.

Mirzo Ulug‘bek haqidagi zamondoshlarining xotirotlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, haqiqatdan uning allamai zamon ekanligiga yanada ishonch hosil qilamiz. Mirzo Ulug‘bek ixlosmandi bo‘lmish G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy otasiga yozgan maktubida allomaning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha ta’riflaydi: “Yaratganga va uning ne’matlariga shukronalar bo‘lsinkim, yetti iqlim farmon bardori, islom podshohi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek Mirzo donishmand kishidir. Kamina bu narsani odob rasmi yuzasidangina aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki, avvalo, ul zot Qur’oni Karimning aksariyat qismini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'YOYALAR



yoddan bilardi. Tafsirlarni hamda mufassirlarning har bir oyat haqidagi talqinlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar. Arabchada yaxshi va ravon yozadilar. Shuningdek ul kishi fiqhdan ham ancha mantiq ma'nolarining bayoni va usullaridan ham xabardordirlar."

Ulug'bek riyozat fani barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shundoq jiddiy mahorat ko'rsatardilarki, kunlarning birida ot ustida ketayotib, 818-yil rajab oyining o'ninchisi va o'n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15-20 sentabr) dushanba kuni mavsumning qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytdilar. Shunga ko'ra otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimi o'sha kuni bir daraja va ikki daqiqa ekanligini topdilar. So'ngra otdan tushgach hisob to'g'ligini bu bandayi bechoradan so'rab aniqladilar."

G'iyosiddan al-Koshiyning guvohlik berishicha, inson bino bo'lgandan beri hali hech kim Mirzo Ulug'bekchalik bu qadar aniq hisoblay olmagan ekan. Davlatshoh Samarqandiy o'zining "Tazkirat ush-shuaro" (Shoirlarni yod olguvchi kitob) asarida Mirzo Ulug'bekning qudratli quvvayi hofizasi haqida "Mirzo Ulug'bekning farosati va xotirasining quvvati shu darajada ediki, har yerda biron jonivorga o'q uzib, ov qilsa, shu tarixni eslab qoladi, voqeа kuni va qayerda sodir bo'lganligini, jonivorlardan qaysi biri ov qilinganligini daftariga bitib qo'yardi. Tasodifan o'sha daftar yo'qolib qoldi. Qancha qidirsalar ham uni topa olmadilar. Daftarni saqlab yurgan xizmatchilar sarosimaga tushdilar. Podshoh dedi: "tashvish tortmanglar! Men o'sha daftarga yozilgan gaplarni boshdan-oyoq yod bilaman". So'ng Ulug'bek kotiblarni chorlab, aytib turdi, ular yozib oldilar. Yangi daftar to'lgan ham ediki, ilgari yo'qolgan daftar topib qoldi. Har ikkala daftarni solishtirib, to'rt-besh ixtilofdan bo'lak farq topolmadilar."

Ulug'bek Mirzoning yaqin qarindoshi, Amir Temurning chevarasi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) shunday yozadi: "Ulug'bek mirzoning imoratlaridin" O'sha davrning olim-u allomalari, falakiyotshunoslari, riyozatshunoslari davrasi Ulug'bekni ulug' ishlarga undadi. Ilm insonni yuqori cho'qqilarga boshlashini anglagan olim-podshoh, avvalo, ilm maskanlarini bunyod etish dasturini o'yladi. Bu borada Samarqand, Buxoro va G'ijdivon shaharlarida madrasalar barpo etdi. Hozirda bu uchala madrasalar "Mirzo Ulug'bek madrasasi" deb yuritiladi. Bulardan tashqari Marv shahrida ham madrasa qurbanligi haqida ma'lumotlar saqlangan. Zarafshon vodiysida birinchi bunyod etilgan madrasa 1417-yil Buxoroda, 1420-yil Samarqandda, 1433-yil G'ijdivondagi ilm dargohlari bo'lgan madrasalar qurib bitkazilgan.

Muhammad Tarag'ayning ustozlaridan biri Mavlono Ahmad ekanligini faraz qilishimiz mumkin, negaki bu zot Amir Temur saroyidagi eng yirik olimlardan biri bo'lgan, sayyoralarining istiqboldagi ikki yuz yillik taqvimlarni tuzishni uddalagan edi. Mirzo Ulug'bekning o'zi esa keyinchalik asosiy asari bo'lmish "Zij"ida faqatgina taxminan 1355 yoki 1366-yilda Old Osiyoda - hozirgi Turkiyadagi Marmar dengizi bo'yidagi Bursa shahrida tavallud topgan va bir qancha ilmiy-ma'rifiy asarlar yaratgan Salohiddin Musa Muhammad al-Bursaviy as-Samarqandiy yoki Mavlono Qozizoda Rumiyni "ustozim" deb ataydi. Boshqacha aytganda Mirzo Ulug'bek bolalik kezlaridanoq Mavlono Ahmad va





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Qozizoda Rumiy kabi falakiyotshunoslar va riyoziyotshunoslar ta’sirida ulg‘aydi, shu bois ham uning keyingi hayotida aniq fanlar muhim kasb etib bordi.

Ulug‘bek Mirzoning yaqin qarindoshi, Amir Temurning chevarasi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) shunday yozadi: “Ulug‘bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal‘asining ichida Madrasa va Xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug‘ gumbazdir, olamda oncha ulug‘ gumbaz yo‘q deb nishon berurlar. Yana ushbu madrasa va xonaqohga yaqin bir yaxshi hammom ham solibtur. ‘Mirzo hammomi”g‘a mashhurdur, har nav toshlardin farshlar qilibdur. Xuroson va Samarqandg‘a oncha hammom ma’lum emaskim, bo‘lg‘ay. Yana bu madrasaning janubida bir masjid solibdur. “Masjidi Muqatta” derlar. Bu jihattin Muqatta derlarkim, qit‘a-qit‘a yig‘ochlarni tarosh qilib, islamiy va xitoiy haqshlar solibdurlar, tamom devorlari va saqshlari ushbu yo‘sinluqtur. Bu masjidning qiblasi birla madrasa qiblasining orasida bisyor tafovuttur. G‘olibo, bu masjid qiblasining samti munajjim tariyqi birla amal qilibtuplar. Yana bir oliy imorati Pushtayi Ko‘xak domanasida Rasaddurkim, “Zij” bitmakning olatidur. Uch oshyonlikdir. Ulug‘bek mirzo bu rasad bilan “Ziji Ko‘ragoniy”ni bitibturkim, olamda hola bu zij mustamuldur. O‘zga zij bila kam amal qilurlar. Mundin burun Ziji Elxoniy mustamal edikim, Xoja Nosir Tusiy Halokuxon zamonida Marog‘da rasad bog‘latibtur. Halokuxondurkim, Elxon ham derlar. G‘olibo, olamda yetti-sakkiz rasad besh bog‘lamaydurlar. Ul jumladan bir, Mamun xalifa rasad bog‘labturkim, Ziji Mamuniyni andin bitibturlar. Bir Batlimus ham rasad bog‘labdur. Yana bir Hindistonda Roja Bikromojit zamonida O‘jin va Dahordakim, Molva mulkidir, holo Mandug‘a mashxurdur. Yana bir rasad qilibdurlar, holo hindularning mustamali Hindistonda ul ziyjdur. Bu rasadni bog‘lag‘oni ming besh yuz sakson to‘rt yildur. Bu ul zижларга boqa noqisroqdur.”

Samarqand olimlari Mirzo Ulug‘bek rasadxonasida ilmiy tadqiqotlar olib borar ekan, ular falakiyotshunoslik sohasini har tomonlama kamol etirishga kirishadi. Islom madaniyatida aniq fanlar muhim o‘rin tutib kelgan. Kishilar hayoti davomida matematika, geografiya, hunarmandchlik va me’morchilik fanlarini o‘rganishi muhimligi rasadxona ilmiy yo‘nalishining muhim mezonlari edi.

Ulug‘bek madrasasi 1420-yilda ochilgan Samarqand madrasasi ikki qavat ellik hujrali bo‘lgan. Har bir hujra uch xonaga: qaznoq (omborxona), yotoqxona va darsxonalariga bo‘lingan. Madrasada o‘sha zamonning iqtidori olimlardan mavlono Shamsiddin Muhammad Xavfiy yetakchi mudarris bo‘lgan. O‘rta asrlarning mashhur olimlari Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoni ,Mirzo Ulug‘bek va uning shogirdi Alouddin Ali Qushchilar turli fanlardan dars bergenlar. Madrasa ochilgan kuni birinchi darsni Shamsiddin Muhammad Xavofiy o‘qigan, darsda tolibi ilmlardan hay‘at astronomiyadan darsni Qozizoda Rumiy bergen. Madrasada kamida 15-16 yil tahsil ko‘rib, uning dasturi bo‘yicha fanlarni to‘la o‘zashtirgan va imtihonlardan o‘z bilimini namoyish qilgan tolibi ilmlarga sanad (shahodatnoma) berilgan.

Yuqorida keltirilgan barcha tarixiy ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, Mirzo Ulug‘bek Vatanimiz tarixida ulkan iz qoldirgan, har qancha faxrlansak arziyidigan buyuk





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



alloma, kelajak avlodga beqiyos boylik qoldirgan dahodir. Uning qoldirgan ilmiy merosi 40 yil hukmdorlik qilgan davrda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan ming chandon qimmatli, ming chandon arzirlidir. Jahon tarixidagi ilmiy darajasi yuksak baholangan olim bobomiz izidan biz ham ildam borishimiz darkordir. Ana shundagina O‘zbekistonni dunyo olimlari tan oladi va tan beradi. Tarix bizdan rozi bo‘ladi!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sirojiddinov.I “Ixlos bo‘stoni” T:, “Sharq” 2012. 67-98-105-betlar.
2. Shamsutdinov.R, Mo‘minov. H. “O‘zbekiston tarixi” T:, “Sharq” 2015.
3. Mamanova, D. U. (2024). MAKON-ZAMON VA OBRAZLARARO O‘XSHASH IKKI ROMAN. «Ёши олимлар ахборотномаси»—«Вестник молодых ученых», 2(2), 100-105.
4. Маманова, Д. (2024). Художественное событие, переходящее от романа за романом. *in Library*, 2(2), 97-101.

